Mintaqaviy konsentratsiya raqamlashtirish darajasi va yashirin jinoyatlar darajasi o'rtasida bevosita bog'liqlikni ko'rsatadi. Ba'zi hududlarda alohida holatlar qayd etilgan, bu ma'lumot yetishmasligi bilan emas, balki yetarlicha aniqlanmagani bilan bog'liq.

Kelgusi yillarda (agar bu tendentsiya davom etsa), IT jinoyatlarining ulushi 60–70 foizdan oshishi mumkin, bu esa an'anaviy jinoyat turlarini chetga suradi.

Ushbu tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoq Internet tarmog'i axborot maydonining ijtimoiy o'zaro aloqani tashkil etish mumkin bo'lgan bir qismi (veb-saytlar, platformalar, onlayn-servislar yig'indisi) sifatida tushuniladi. Bunday tushunish, "an'anaviy" ijtimoiy tarmoqlar ("VKontakte", "Odnoklassniki", "Facebook") bilan bir qatorda, ICQ, "Skype" singari servislar ham tadqiqot obyektlariga aylanishiga imkon yaratadi. Mazkur yondashuv ancha keng bo'lib, uni bir qator tadqiqotchilar, shu jumladan, chet ellik olimlar ilgari suradilar.

Kompyuter va internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda sodir etiladigan jinoyatlar ko'lamini baholash mushkul. Tadqiq etilayotgan jinoyatchilik turini obyektiv tahlil qilishga huquqni muhofaza qilish organlari statistik hisobotlarining (birinchi navbatda, telekommunikatsiyalar va kompyuter axboroti sohasida sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi hisobotning) mukammal emasligi, axborot-texnologiya vositalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va ochish bilan bog'liq qiyinchiliklar imkon bermaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, barcha kiberjinoyatlarning 98 foizi iqtisodiy xususiyatga ega. Ularning eng katta qismini elektron to'lov tizimlari orqali sodir etilgan o'g'riliklar tashkil etadi – 62 foiz (36 444 ta holat). Ularning *umumiy sonidan*:

- 2023-yilda ishlarning *69,7 foizi hal qilinmagan*.
- 2024-yilda *98,2 foiz holat hal qilinmagan*.
- 2025-yilda (8 oyi davomida) *92,7 foiz holat hal qilinmagan*.

Kiberjinoyatni sodir etishning asosiy usullarini foizlar asosida taqsimlash mumkin.

Kiberjinoyatni sodir etishning eng keng tarqalgan usullari:

– 33,8 foizi (12 368 ta holat) – bank kartasi yoki qurilmani soxta havolalar/zararli dasturlar orqali nazorat qilish;

– 16,3 foizi (6 001 ta holat) – ijtimoiy tarmoqlarda yoki onlayn xarid-sotish platformalari-dagi ("sotuvchi"/"xaridor") firibgarlik;

- 12,3 foiz (4 507 ta holat) – kapitalni ko‘paytirish niqobi ostida soxta savdo yoki birja platformalariga pul o‘tkazish;
- 6,2 foiz (2 276 ta holat) – kartaga kirish uchun soxta raqam bilan telefon qo‘ng‘iroqlari;
- 3,9 foiz (1 459 ta holat) – fuqarolar nomiga onlayn mikro kreditlar va kreditlar berish;
- 0,9 foiz (327 ta holat) – meros, o‘tkazish yoki xayriya yig‘imlari va‘dasi;
- 0,4 foiz (129 ta holat) – banklar va to‘lov tashkilotlarining texnik zaifliklaridan foydalanish;
- 0,2 foiz (62 ta holat) – banklar va to‘lov tashkilotlari xodimlari tomonidan mijoz mablag‘larini o‘g‘irlash;
- 26 foiz (11 127 holat) – boshqa usullar.

Taxminlarga ko‘ra, xakerlik jinoiy faoliyat bilan bog‘liq. Aslida bu shunchaki kompyuter tizimlari bilan ishlash mahorati bo‘lib, u boshqa har qanday mahorat singari egasining motivatsiyasiga qarab butunlay boshqa muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. A.I. Xaliullin tomonidan olib borilgan jinoyat-huquqiy tadqiqotda muallif “xaker” atamasini ta’riflashda chuqur tahlil va yondashuvlar borligini aytib, “...buni takrorlashdan ma’no ko‘rmayapmiz”, – deydi [8, 21–23-b.].

Ingliz tilidagi “kraker” (inglizcha *crack* – “buzmoq”) atamasidan kompyuter tizimlarini g‘arazli niyatda buzadigan, o‘z bilim va ko‘nikmalarini jinoiy harakatlar sodir etish maqsadida ishlatib, “buzadigan” shaxslarni belgilashni to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Ularni texnologiya, kompyuter tizimlarini tadqiq qiladigan, lekin jinoyat sodir etmaydigan xakerlardan ajratish zarur [9, 59–65-b.]. Biroq jahon tendensiyalariga muvofiq, “xaker” atamasi zamonaviy jinoiy huquqshunoslik fanlarida doimiy ravishda axborot tizimini xakerlik qilishdan jinoyat sodir etish usuli sifatida foydalanadigan axborot texnologiyalari sohasidagi professional jinoyatchilarga nisbatan qo‘llanadi. Shu bilan birga, jinoyat sodir etishning o‘ziga xos sabablari aniqlanadi, ular xakerlik submadaniyatiga xosdir (kognitiv, o‘yin, bezorilik, siyosiy va boshqalar), shaxsiy manfaatlarning ikkilamchi xususiyatini istisno qiladi yoki ta’kidlaydi [10, 167-b.].

Xakerlar hamjamiyatining xususiyatlari va iyerarxiyasi xorijiy adabiyotlarda juda keng tarqalgan. Shunday qilib, xakerlar o‘z faoliyati motivlariga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

- “oq qalpoqlilar” – “axloqiy xakerlar” – ishi kompyuter tizimlarining zaif tomonlarini, xatolarini, zaif tomonlarini ularni bartaraf etish, mustahkamlash maqsadida topadigan shaxslar;

- “qora shlapalar” – ishi jinoiy manfaatlardan tashqari tizimlarni buzish (ko‘pincha foyda yoki obro‘ uchun) bo‘lganlar;

- “kulrang shlyapalar” – ularning motivlari vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin;

- “xaktivistlar” – siyosiy va ijtimoiy g‘oyalarni ilgari surish uchun o‘z mahoratidan foydalanadigan xakerlar. Xaktivistik harakatning norozilik shakllariga fuqarolik itoatsizligi kiradi: hukumat veb-saytlarini bloklash, URL manzilini qayta yo‘naltirish, DDoS hujumlari, kompyuter ma’lumotlarini o‘g‘irlash va damping, parodiya veb-saytlari va boshqalar.

Masalan, 2012-yil mart-may oylarida “Anonim” guruhining rossiyalik xakerlari ommaviy axborot vositalariga, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi prezidenti va hukumati saytlariga DDoS hujumlarini amalga oshirib, ularni uzoq vaqt davomida blokirovka qildi. Natijada 2013-yil yanvar oyida Rossiya Federatsiyasining Federal xavfsizlik xizmati (FXX) Krasnoyarskning ikki fuqarosiga qarshi jinoyat ishlarini sudga yubordi [11].

Ko‘nikma darajasiga ko‘ra quyidagi guruhlar ajratiladi:

- yangi havaskorlar yoki “yashil shapkalilar” (*noob, newbiye, green hats*), “xaking”ni endigina o‘rgana boshlagan va minimal mahorat darajasiga ega bo‘lganlar; ular kiberjinoyatchilar hamjamiyatida deyarli maqomga ega emas;

– skript bolalari (*script kiddies*) – o‘zlarining xakerlik hujumlari vositalarini yaratish va internetdan olingan tayyor yechimlardan foydalanish uchun zarur bilimga ega bo‘lmagan yosh xakerlar;

– xakerlar (*hacker, leet*) – professionallar, xakerlar jamiyati elitasi, kompyuter tuzilishi, undagi jarayonlar, dasturiy ta‘minot, dasturiy mahsulotlar yaratish, kompyuter tizimlariga hujumlarni avtomatlashtirish haqida keng bilimga ega, rivojlangan ko‘nikmalar va tushunchalarga ega bo‘lgan odamlar [12, 102–103-b.].

Hujum maqsadiga ko‘ra, xakerlar “ichki” (*insider hackers*) (ya‘ni kompyuter tizimi yoki tarmog‘ining qonuniy asoslarda foydalanuvchilarining o‘z vakolatlaridan tashqari harakat qilishlari) va “tashqi” xakerlar, ya‘ni begonalar (*outsider hackers*) [13, 165-b.] deb tasniflanadi.

Zararli havolalar va ilovalarni tarqatish

Keyingi paytda, ayniqsa, zararli APK dasturlari keng tarqaldi. Faqat 2024-yilda ular 30 000 dan ortiq odamga ta‘sir ko‘rsatdi. Masalan, “*MoliyaviyYordam.apk*” virusi 22 ming kishining qurilmalariga zarar yetkazdi, 11 mingdan ortiq bank kartalarini buzdi va ularning kontaktlar ro‘yxati orqali yana 630 mingga yaqin foydalanuvchilarga avtomatik ravishda tarqaldi.

Laboratoriya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bunday viruslar o‘rnatilgandan so‘ng yashirin ravishda:

- qurilmaning kamerasi va mikrofonni yoqilishi;
- qo‘ng‘iroqlarni yozib olish va SMS, fayllar va geolokatsiyani uzatish,
- maxfiy foydalanuvchi ma‘lumotlarini to‘plash funksiyalari ishga tushishi mumkin.

95 foiz hollarda ular “Telegram” messenjeri orqali tarqatiladi va o‘zini o‘zi targ‘ib qilish uchun dasturlashtirilgan. Eng yomoni, hujumlar nafaqat fuqarolarga, balki davlat xizmatchilarining mobil qurilmalariga ham qaratilgan bo‘lib, maxfiy ma‘lumotlarning sizib chiqishi xavfini tug‘diradi. Ba‘zi hollarda tajovuzkorlarni pul emas, balki ma‘lumotlarga kirish qiziqtiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday hujumlar nafaqat mablag‘lar yoki shaxsiy ma‘lumotlarni o‘g‘irlash, balki terrorizmni moliyalashtirish, davlat sirlarini buzish, strategik obyektlarni ishdan chiqarish uchun ham qo‘llanishi mumkin.

Mikrokreditlar bilan bog‘liq onlayn firibgarlik

Aniqlanishicha, 2 790 nafar fuqaroning nomiga o‘zlari bilmagan holda 10 mlrd so‘mlik onlayn mikrokreditlar berilgan. 2024-yilda bu ko‘rsatkich 2 109 nafarga ko‘paygan bo‘lsa, berilgan mablag‘ ham sezilarli darajada – 137 mlrd so‘mga oshdi. 2025-yilning yetti oyi davomida bunday holatlar keskin ko‘paydi: 4 263 nafar jismoniy shaxsga noqonuniy ravishda 198,9 mlrd so‘mlik onlayn mikrokreditlar berildi. Noqonuniy berilgan mikrokreditlarning banklar tomonidan taqsimlanishi tahliliga ko‘ra, eng katta ulush Anorbank, TBC, Ipotekabank, Xalq banki va Uzumbank kabi tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Aniqlanishicha, “chet elga aloqador” jinoyatlarning salmoqli qismi 4–6 ta xorijiy soxta “koll-markaz”lar va ularga aloqador uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan. Xalqaro hamkorlikdagi muammolar tufayli ularning aksariyati hal etilmagan. Eng keng tarqalgan usullar quyidagilardir:

- zararli havolalar va dasturlar orqali bank kartasi va mobil qurilma ustidan nazoratni qo‘lga kiritish;
- SIP raqamlari va telefon firibgarliklaridan foydalangan holda fuqarolar nomiga onlayn kreditlarni rasmiylashtirish;
- aholini visual “kripto birjalar” va “savdo”lar faoliyatiga jalb qilish;

– jabrlanuvchini pochta va bojxona to'lovlari niqobi ostida pul o'tkazishga ko'ndiradigan "chet eldagi meros" yoki "yutuq" va'dasi bilan bog'liq firibgarlik.

Onlayn birjalar va moliyaviy piramidalar ko'rinishidagi kiberfiribgarlikning o'sishi

2024-yilda soxta onlayn birjalar va savdo maydonchalari orqali fuqarolarning pul mablag'larini o'g'irlash bilan bog'liq 9 822 ta jinoyat qayd etilgani ushbu turdagi onlayn firibgarlik ko'payganidan dalolat beradi. Ayniqsa, "moliyaviy piramidalar" xavfli hisoblanadi, ular:

- anonim harakat qilish;
- arzon va katta hajmdagi reklama kanallaridan foydalanish;
- qisqa vaqt ichida ko'p sonli qurbonlarni jalb etish imkonini beradi.

Kibermakonda bunday sxemalar o'rtacha 12 oydan 18 oygacha davom etib, tashkilotchilarga o'z faoliyatini yashirincha kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular yuqori daromad va'dalarini berib, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarini faol jalb etadilar. Ba'zan foydalanuvchilarga tashviqot tarqatadigan va yangi ishtirokchilarni jalb etadigan "mintaqaviy menejerlar" rolini taklif qiladilar. Natijada jabrlangan fuqarolar soni keskin o'sib bormoqda va jamiyatga moliyaviy yo'qotishlar katta bo'ladi.

Jinoyatchining shaxsini o'rganish ham ushbu jinoyatning sodir etilishi sabablariga oydinlik kiritishi mumkin. Bugungi kunda bu turdagi jinoyatlarni sodir etganlar asosan bosh kompyuterga kirishga ruxsat olish uchun uy kompyuteri va telefonni ishlatuvchi yosh xaker emas, balki tizimga kirishga ruxsati bo'lgan xizmatchi, notexnik foydalanuvchi ekanligi aniqlandi. O'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilishga, jumladan, shaxsiy yoki moddiy naf ko'rish; raqobatchini obro'sizlantirish; qasos olish; qiziqish; vandallik; o'zini ko'rsatish; ma'lum bir guruhda hurmat qozonishga intilish sababli sodir etilgan.

Shu bilan birga, jinoiy xatti-harakatlarning texnik va texnologik tarkibiy qismlari tezkor yangilanishi tufayli kiberjinoyatchining xususiyatlarini aniqlashga oid savollar ochiq qolmoqda. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarni sodir etishda odamlarning keng doirasi ishtirok etadi, ular orasida "daholar", "qiziquvchan havaskorlar", "xudbin pragmatistlar" mavjud, bu esa jinoyatchilarning psixologik va motivatsion xususiyatlari juda xilma-xil ekanligini anglatib, ularni bir-biridan farqlashni talab etadi.

Tergov va sud materiallari tahlili asosida o'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilganlarni quyidagicha tasnifladik:

- 1) "xaker" (ing. "*hacker*") – kompyuter vositalariga va qonun bilan himoyalangan kompyuter axborot tizimiga ruxsatsiz kirish yo'llarini qidiruvchi EHM foydalanuvchisi;
- 2) "kraker" (ing. "*cracker*") – qonun bilan himoyalangan ma'lumotlarning dasturiy himoya vositalarini "sindirish" (modifikatsiya qilish, blokirovka qilish, yo'qotish) bilan shug'ullanadigan EHM foydalanuvchisi;
- 3) "freker" (ing. "*phreacker*") – maxfiy kompyuter ma'lumotlaridan foydalanib, elektron aloqa sohasida jinoyat sodir qilishga ixtisoslashgan jinoyatchilar;
- 4) naqd bo'lmagan pul bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan muassasa va tashkilotlarning xodimlari.

O'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilish faqat kompyuter sohasida ma'lum bilimga ega bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Bu xususiyat ushbu jinoyat subyektiga alohida yondashishni taqozo etadi. Ya'ni o'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilishda jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan mulk yoki mulkiy huquqlarga tajovuz qilish bevosita kompyuter vositalari orqali amalga oshirilishi talab

qilinar ekan, avvallo, ushbu kompyuter vositalaridan foydalanish tartibini bilmasdan turib, buni amalga oshirishning deyarli imkoni yo'q.

O'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilganlik uchun amaldagi JKning 167–169-moddalarida javobgarlik belgilangan bo'lib, bunda firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata uchun jinoyat subyekt yoshi 16, o'g'rilik uchun 14 yosh deb belgilangan. O'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilish subyektlarini alohida o'rganib chiqish maqsadga muvofiq. Jumladan, o'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish subyekti talon-toroj qilingan mulkning unga ishonib topshirilganligi yoki uning ixtiyorida (xo'jalik yuritish yoki operativ boshqaruv huquqi asosida berilgan) ekanligi bilan boshqa turdagi kompyuter talon-toroji subyektlaridan farqlanadi. Demak, o'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish subyekti an'anaviy o'zlashtirish yoki rastrata subyektiga xos bo'lgan barcha umumiy va maxsus belgilarga ega bo'ladi. Bunda jinoyat predmetining aybdorga ishonib topshirilganligi yoxud ixtiyoriga berilganligi subyektning maxsus belgisini tashkil etadi va ushbu jinoyat subyekti maxsus subyekt bo'lishi lozimligini talab etadi.

Aniqlanishicha, ushbu toifadagi jinoyatlarda jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini o'rgangan kriminolog olimlar quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatishadi [14, 77–78-b.]: taxminan 90 foiz hollarda kiberjinoyatchi ilgari sudlanmagan, shaharda yashovchi va vaqtinchalik yoki doimiy propiskaga ega erkakdir. Uning yoshi asosan 16 yoshdan 35 yoshgacha bo'lib, tadqiqotchilar jinoyatchilar "yosharayotgani"ni qayd etishmoqda: xususan, dunyodagi kiberjinoyatchilarning 10 foizi 14 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlardir, xakerlik hujumlarining 90 foizi esa 20 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi [15, 7–10-b.]. K.N. Yevdokimov tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, jinoyatchilarning ma'lumot darajasi uch guruh o'rtasida taxminan teng taqsimlangan: taxminan 30 foizi o'rta ma'lumotli, 32 foizi o'rta maxsus ma'lumotli va 37,3 foizi oliy va to'liq bo'lmagan oliy ma'lumotli [16, 50–52-b.].

Ko'rilgan misollardan kelib chiqib, o'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib firibgarlik yo'li bilan talon-toroj qilish subyekti yoshini 14 yosh qilib belgilash maqsadga muvofiq. Sababi kompyuter firibgarligi an'anaviy firibgarlik jinoyatidan yuqorida ta'kidlaganimizdek, sodir etilish usuliga ko'ra farq qiladi. Xususan, firibgarlikda jinoyat tarkibi obyektiv tomoni zaruriy belgisi bo'lgan harakat (aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish) aybdor va jabrlanuvchi o'rtasidagi bevosita muloqot natijasida yuz berishi tufayli 14 yoshli shaxsning ushbu harakatlarni sodir etishi ancha mushkul. Biroq bunday holatni kompyuter firibgarligiga nisbatan tatbiq eta olmaymiz. Zotan, kompyuter firibgarligida aybdor va jabrlanuvchi o'rtasidagi muloqot bevosita amalga oshirilmasligi tufayli 14 yoshga to'lgan shaxs ham kompyuter orqali hech bir to'siqlarsiz jabrlanuvchini aldash yoki ishonchini suiiste'mol qilish imkoniyatiga ega bo'la oladi.

O'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib o'g'irlaganlik uchun amaldagi jinoyat qonunida belgilangan yosh chegarasini o'zini qoldirish maqsadga muvofiq.

Turli manbalarni tahlil qilish subyektlarni kichik guruhlariga bo'lish imkonini beradi: axborot texnologiyalari sohasida ko'nikmalarni rivojlantirish darajasi turlicha bo'lgan, tizimli jinoiy faoliyat bilan shug'ullanmagan shaxslar. Ularning maqsadi qasos olish, ochko'zlik, bezorilik niyatlari, ba'zan boshqa jinoyatni yashirish istagi bo'lishi, axborot texnologiyalari sohasida malakasi yetarli emas yoki o'rtacha darajada bilgan, tizimli jinoiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ko'pincha jinoiy guruhlariga a'zo shaxslar bo'lishi mumkin.

Fikrimizcha, bu borada D.I. Elmurzayev [17, 24-b.], A.N. Prikmeta [18, 29-b.] va A. Norovning [19] fikrlariga qo‘shilish kerak, sababi kiberjinoyatchi ko‘pincha oldindan qanday mudhish jinoyat sodir etayotganini biladi, hatto jabrlanuvchi bilan o‘zaro kurashda uning yutqazishini ta‘minlash maqsadida unga turli hujumlarni o‘zi xohlab, ongli ravishda unga qanday zarar keltirayotganini bilgan holda amalga oshiradi. Hatto ba‘zi hollarda bundan g‘ururlanishgacha boradi.

Ushbu holatni tushuntirish uchun istagan internet kafeda o‘tirgan bolalarning o‘zaro guruh shaklida, sog‘lig‘i va ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan internet o‘yinlarini o‘ynashlari va o‘zlarining maqsadini amalga oshirish, o‘yinda g‘olib bo‘lish hamda himoyalani uchun qanday choralarni ko‘rayotganligi bilan bog‘liq vizual holatni ko‘z oldimizga keltirsak, ushbu jinoyat haqiqatan ham to‘g‘ri qasddan sodir etilishini bilib olishimiz mumkin.

Xorijlik mualliflarning ta‘kidlashicha, yashirin kiberbozorlar quyidagi xizmatlarni o‘z ichiga oladi: *Crime-as-a-Service* (CaaS) – tayyor vositalarni sotish (masalan, zararli dasturlar), *Infrastructure-as a Service* (IaaS) – infratuzilma elementlarini sotish (masalan, uskunalar); *Research as a Service* (RaaS) – ma‘lumotlarni yig‘ish va sotish (masalan, bank kartalari raqamlari) [20].

Ushbu bozorlar sotish uchun uskunalar, dasturiy ta‘minot, o‘quv materiallari, maxfiy ma‘lumotlar (bank kartalari raqamlari, shaxsiy ma‘lumotlar va boshqalar), jinoyat sodir etish jarayonini to‘liq qo‘llab-quvvatlash, texnik yordam, “sifatni ta‘minlash” sxemalari, ma‘lumot va yordamni taklif qiladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, eng ko‘p talab qilinadigan xizmatlar zararli dasturlarni yaratish va tarqatish (55 foiz), shuningdek, pochta, veb-saytlar va masofaviy serverlarni “buzish” (17 foiz) bilan bog‘liq. Bundan tashqari, soyadagi kiberbozorlar mintaqa yoki tilga bo‘linmasdan, tobora globallashtirib bormoqda: rus tilidagi segmentlarning ko‘plab reklamalarini ingliz yoki arab forumlarida ko‘rish mumkin [20].

Shu bilan birga, *Dark Web* foydalanuvchilari anonimligiga qaramay, jinoiy kiberbozor – uning “mahsulotlari”, talab va taklif, sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish – kompyuter sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish va ularning oldini olishning zaruriy tarkibiy qismidir.

Qayd etish joizki, jinoyatchi xakerlar tizimli jinoiy faoliyatni amalga oshiradigan axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakaga ega bo‘lgan shaxslardir. Qoida tariqasida, professional xakerlar tor mutaxassislikka ega. Ular orasida kiberterrorchilarni (ularning ixtisosligi davlat idoralari, maxsus xizmatlar va tashkilotlarga qarshi DDoS hujumlari bilan kompyuter ma‘lumotlarini blokirovka qilish orqali kibersabotaj), krakerlarni (ular amaliy dasturlarni himoya qilish tizimlarini chetlab o‘tishga ixtisoslashgan), frikerlar (xavfsizlik tizimlariga ruxsatsiz kirishga ixtisoslashgan), virusmeykerlar (zararli kompyuter dasturlari yoki ma‘lumotlarini yaratish)ni alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

Jinoiy faoliyat uchun motivatsiya ham sezilarli darajada farq qiladi: barcha ixtisosliklarda tamagirlik motivi ustunlik qilsa-da, uni tor yo‘naltirilgan vazifalar – turli dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish bilan birlashtirish mumkin. Biroq ularga bunday ishning asl maqsadi haqida ma‘lumot berilmasligi mumkin.

Xulosa

*Birinchi*dan, bizningcha, ko‘rib chiqayotgan jinoyatlar toifasining tipik subyekti sifatida 16 yoshdan 40 yoshgacha, axborot texnologiyalari va zararli dasturlar bilan ishlash borasida juda yaxshi yoki professional ko‘nikmalarga ega, ko‘pincha moddiy manfaatni ko‘zlab g‘arazli niyatlarda harakat qiladigan, doimiy daromad manbayiga ega bo‘lmagan va shahar joylarda,

asosan aholi gavjum joyda yashovchi, ko'pincha muqaddam sudlanmagan, nikohda bo'lmagan erkak kishi kabi shaxslarni aytish mumkin.

Ikkinchidan, o'zgaralar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib firibgarlik yo'li bilan talon-toroj qilish subyektini yoshini 14 yosh qilib belgilash maqsadga muvofiq. Sababi kompyuter firibgarligida aybdor va jabrlanuvchi o'rtasidagi muloqot bevosita amalga oshirilmasligi tufayli 14 yoshga to'lgan shaxs ham kompyuter orqali hech bir to'siqlarsiz jabrlanuvchini aldash yoki ishonchini suiiste'mol qilish imkoniyatiga ega bo'la oladi.

REFERENCES

1. Maslakova E. A. Nezakonnyy oborot vredonosnykh programm dlya EVM: ugovovno-pravovyye i kriminologicheskie aspekty [Illegal trafficking of malicious computer programs: criminal and criminological aspects]. Moscow, 2008, pp. 4, 46.

2. Evdokimov K. N. Osobennosti lichnosti prestupnika, sovershayushchego nepravomernyy dostup k komp'yuternoy informatsii (na primere Irkutskoy oblasti) [Personality Traits of a Criminal Who Unauthorizedly Accesses Computer Information (Based on the Irkutsk Region)]. *Siberian Legal Bulletin*, 2011, vol. 1.

3. Dubyagina O. P. Kriminologicheskaya kharakteristika norm, obychaev i sredstv obshcheniya prestupnikov [Criminological characteristics of norms, customs and means of communication of criminals]. Moscow, 2008, p. 20.

4. Prostoserdov M.A. Ekonomicheskie prestupleniya, sovershaemye v kiberprostranstve, i mery protivodeystviya im [Economic crimes committed in cyberspace and measures to combat them]. Moscow, 2016, p. 36.

5. Baturin Yu. M. Pravo i politika v komp'yuternoy srede [Law and Policy in the Computer Environment]. Moscow, Science Moscow Publ, 1987, p. 111.

6. Lopatina T.M. Kriminologicheskie i ugovovno-pravovyye osnovy protivodeystviya komp'yuternoy prestupnosti [Criminological and criminal-legal foundations for combating computer crime]. Moscow, 2006, pp. 30–31.

7. Dremlyuga R.I. Internet-prestupnost' [Internet crime]. Vladivostok, 2007, p. 143.

8. Khaliullin A.I. Khaker kak sub'yekt prestupleniya v sovremennykh ugovovno-pravovykh issledovaniyakh [Hacker as a subject of crime in modern criminal law research]. *Russian Justice*, 2019, vol. 12, pp. 21–23.

9. Stepanov-Egiyans V.G. Otvetstvennost' za prestupleniya protiv komp'yuternoy informatsii po ugovovnomu zakonodatel'stvu Rossiyskoy Federatsii [Liability for crimes against computer information under the criminal legislation of the Russian Federation]. Moscow, Statut Publ., 2016, pp. 59–65.

10. Kopiryulin A.N. Prestupleniya v sfere komp'yuternoy informatsii: ugovovno-pravovyye i kriminologicheskie aspekty [Computer crimes: criminal law and criminological aspects]. Tambov, 2007, p. 167.

11. Krasnoyarskogo khakera budut sudit' za ataku na sayt pravitel'stva Rossii [A Krasnoyarsk hacker will be tried for an attack on the Russian government website]. Available at: <http://ria.ru/incidents/20130117/918552526.html>

12. Holt T.J., Bossler A.M., Seigfried-Spellar K.C. Cybercrime and Digital Forensics. Introduction. Second Edition. Abingdon, Oxon, Routledge Publ., 2018, pp. 102–103.

13. Maimon D., Lounderback E.R. Cyber-Dependent Crimes: an Interdisciplinary Review. *The Annual Review of Criminology*, 2018, vol. 12 (37), p. 165.

14. Zuyeva S.V. Spravochnik sledovatelya po informatsionnym tekhnologiyam [Information Technology Investigator's Handbook]. Moscow, Yurlitinform Publ., 2019, pp. 77–78.

15. Glazatova S.V., Burseva Ye.V., Medvedeva S.V. Kiberprestupleniya, sovershennye nesovershennoletnimi: problemy rassledovaniya [Cybercrimes Committed by Minors: Investigative Challenges]. *Russian Investigator*, 2021, vol. 2, pp. 7–10.

16. Yevdokimov K.N. Kriminologicheskiy portret lichnosti prestupnika, sovershayushchego prestupleniya v sfere komp'yuternoy informatsii [A criminological profile of a criminal committing crimes in the field of computer information]. Current issues of legal sciences in modern conditions: Proceedings of the international scientific and practical conference. St. Petersburg, Novgorod, 2018, pp. 50–52.

17. El'murzaev D.I. Ugolovnaya otvetstvennost' za dovedenie do samoubiystva [Criminal liability for incitement to suicide]. Moscow, 2004, p. 24.

18. Prikmata A.N. Kiberprestupnost' v Rossii. Yuridicheskaya otvetstvennost' za narusheniya prav v sfere informatsionnykh tekhnologiy [Cybercrime in Russia: Legal Liability for Information Technology Violations]. Donetsk, *DonNTU. Computer Science and Cybernetics*, 2018, vol. 2 (12), p. 29.

19. Norov A. Axborot xavfsizligi – davr talabi [Information security - the need of the hour]. Karshi, *Kashkadarya newspaper*, 2019. Available at: <http://qashqadaryogz.uz/oz/read/akhborot-khavfsizligi-davr-talabi>

20. McAfee. CSIS Report: Economic Impact of Cybercrime - No slowing down. 2018.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2025-YIL 3-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2025 ГОД № 3

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2025 ISSUE 3

VOLUME 2 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.2.3.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.